



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
«O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV» AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG'I

2025 yil “ 24 ” 11 121 – son

Toshkent shahri

**Korrupsiyaga qarshi ichki me'yoriy
hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda
“Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi
kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son qarori ijrosini hamda xalqaro ISO 37301 standart
talablarini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi
kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib
chiqish uchun “O'zbek geologiya qidiruv” AJda tuzilgan Maxsus komissiya tarkibi
1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

2. “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi
kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
nizom” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

3. “O'zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining “sovg'alar berish va olish,
biznes-tadbirlarni tashkil etish va ishtirok etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish
bo'yicha Siyosati” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. “O'zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi ichki
nazorat xizmatining Komplayens Siyosati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

- tizim xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish
hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

- qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan
bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik
va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning
roziligisiz oshkor qilinmaslikni nazorat qilish;

- tizimda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni
shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bo'yicha
takliflar ishlab chiqish.

6. Belgilasinki:

Mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq
xodimlarni rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, xodimlarning huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida rag'batlantiriladi:

xodimlar tomonidan o'zlariga nisbatan pora berishni taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat tashkilotining yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi tomonidan xodimga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

7. "O'zbek geologiya qidiruv" AJ va tarkibiy bo'linmalarida mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida quyidagi aloqa kanallari orqali ma'lumot berilishi ta'minlansin:

- Ishonch telefon orqali — 95-505-99-00;
- elektron pochta orqali — anticor@uzgeo.uz;
- rasmiy veb-sayti orqali — <https://www.uzgeo.uz/interactive-services/virtual-reception>;
- Telegram bot orqali — @ichkinazoratbot;
- Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatiga (tel.: 55-503-14-09, ichki: 7024);
- pochta orqali – 100164, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi, 49-uy;
- bevosita Jamiyat boshqaruv raisga;
- Jamiyatining Axloq komissiyasi raisiga.

8. "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 29-mart sanasida 49-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati (Saidaxborov) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Umarov) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirish, devonxona mudiri (Jabborova) ushbu buyruq jamiyat tarkibiy bo'linmalarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlasin.

10. Mazkur buyruq ijrosini nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv rais

Sh.P. Alimov

**«O'zbek geologiya qidiruv» AJ va uning tarkibiy bo'linmalaridagi korrupsiyaga
oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga
boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish
masalasini ko'rib chiquvchi Maxsus komissiya**

TARKIBI

1. Sh.P. Alimov - Boshqaruv raisi, Maxsus komissiya rahbari.
2. R.V. Radjapov - Boshqaruv raisi o'rinbosari, Maxsus komissiyasi rahbari o'rinbosari.
3. S.A. Deryagin - Boshqaruv raisi o'rinbosari, Maxsus komissiya a'zosi.
4. E.X. Ergashev - Boshqaruv raisi o'rinbosari, Maxsus komissiya a'zosi.
5. M.M. Iminov - Boshlang'ich kasaba uyushmasi raisi, Maxsus komissiya a'zosi.
6. G.N. Jabborova - Xotin-qizlar qo'mitasi raisi, Maxsus komissiya a'zosi.
7. D.A. Saidaxborov - Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati boshlig'i, Ishchi guruh a'zosi
8. G'.Y. Chuponov - Yuridik bo'lim boshlig'i, Maxsus komissiya a'zosi.
9. F.A.Umarov - Kadrlar va ularning malakasini oshirish bo'lim boshlig'i. Maxsus komissiya a'zosi.
10. Q.N.Majidov - Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bosh mutaxassisi, Maxsus komissiya kotibi.

Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tganda, uzoq muddatli xizmat safarida bo'lganda, mehnat yoki kasalligi tufayli ta'tilida bo'lgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga tayinlangan yoxud ularning vazifasini vaqtincha bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi. Shu bilan birga, korrupsiyaga oid ma'lumotlar ushbu guruh a'zolaridan biriga tegishli bo'lsa, u vaqtinchalik mazkur jarayondan chetlatiladi.